



## HAYVONLARNING BIOLOGIK XILMA-XILLIGI VA XAVF OSTIDA QOLISHI.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Katta o'qituvchi: Hamzayev Kamoljon Baxtiyor o'g'li

Talaba: Olimjonov Muzaffar Ravshanbek o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15264399>

### ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> April 2025

Published: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Biologik xilma-xillik, hayvon turlari, ekotizim, yo'qolish xavfi, iqlim o'zgarishi, yashash muhiti, inson faoliyati, noqonuniy ovchilik, tabiatni muhofaza qiliash, barqaror rivojlanish, qizil kitob.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada hayvonlarning biologik xilma-xilligi va uning global tahdidlar ostida qolishi tahlil qilinadi. Biologik xilma-xilligi ekotizimlarning barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, inson faoliyati, iqlim o'zgarishi, tabiiy yashash muhitining yo'q qilinishi va noqonuniy ovchilik kabi omillar ko'plab hayvon turlarining yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Maqolada biologik xilma-xillik tushunchasi, uning ahamiyati, unga tahdid soluvchi omillar va uni saqlab qolish bo'yicha choralar muhokama qilindi. Ushbu tadqiqot biologik xilma-xillikni asrashga oid ilmiy va amaliy yondashuvlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Biologik xilma-xillik, hayvon turlari, ekotizim, yo'qolish xavfi, iqlim o'zgarishi, yashash muhiti, inson faoliyati, noqonuniy ovchilik, tabiatni muhofaza qiliash, barqaror rivojlanish, qizil kitob*

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi hayvonlarining biologik xilma-xilligini va ularni xavf ostidan himoya qilish bo'yicha bir qator muhim qarorlar va el'on tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga 2019-2025 yillar davrida biologik xilma-xilligini saqlash strategiyasi 2019-yil 11-iyunda Vazirlar mahkamasi tomonidan 464-son qarori bilan tasdiqlangan, ushbu strategiya O'zbekistonda biologik xilma-xillikni tiklash va saqlash, ekologik xavsizlikni ta'minlash hamda iqlim o'zgarishiga moslashishni ko'zda tutadi. Hayvonlar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun 2016-yil 19-sentabirda qabul qilingan ushbu qonun yovvoyi hayvonlarni saqlab qolish ularning yashash muhitini tiklash va ko'paytirishga qaratilgan chora tadbirlari belgilaydi. Bundan tashqari Biotexnik tadbirlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda 2025-yarvar oyida hukumat qarori bilan tasdiqlangan ushbu nizom hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha biotexnik tadbirlarini amalga oshirish tartibini belgilaydi. Ammo mamlakatimiz hayvonot dunyosi juda boy va rang barang bo'lib, ularning 27000 dan ortiq turi mavjud. Shulardan 14900 tasi umurtqasiz hayvonlar, 715 tasi esa umurtqali hayvonlardir. Umurtqali hayvonlar tarkibida 107 tur sutemizuvchilar, 467 tur qushlar, 61 turi suduralib yuruvchilar, 3 tur amfibiyalar va 77 tur baliqlar mavjud. Shuningdek O'zbekiston yovvoyi hayvonlarning kochib yuruvchi turlarini muhofaza qilishda ham ko'pgina chora tadbirlar korinmoqda. Ammo ayrim turlari yoqolib

ketish xavfi ostida. Masalan Buxoro qo'yi va Ustiyurt qo'yi kabi turlari to'liq yo'q bo'lib ketish arafasida bo'lib ularning soni mos ravishda 110 – 130 va taxminan 150 boshni tashkil qilmoqda va shu kabi hayvonlarni asrab qolish lozim. Hayvonlarni muhofaza qilish maqsadida "Qizil kitob" yaratildi. Bu kitobda kamyob va yo'qolib ketish xafi ostidagin hayvonlar va o'simlik turlari kiritilgan.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hayvonlarning biologik xilma-xilligi tabiiy ekotizimlarning barqarorligini va atrof-muhit muozanatini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Biroq so'ngi yillarda inson faoliyati, iqlim o'zgarishi va ekologik omillar tufayli ko'plab hayvon turlarini yo'qolib ketish xavf ostida qolmoqda. O'zbekiston ham ushbu global muomoga qarshi kurashish uchun qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biologik xilma-xillik ekotizimning mustahkamligini ta'minlaydi va oziq ovqat zanjirida muhim rol o'ynaydi. Hayvonlarning ko'plab turlari tuproqni unumdorligini oshirishda, changlantiruvchi hashorotlar orqali o'simliklarning ko'payishiga yordam berish va ekologik muvozanatni saqlash kabi jarayonlarda ishtirok etadi. Xususan yirtqich hayvonlar papulyatsiyalarni nazorat qilishga yordam beradi bu esa ekotizimdagi ortiqcha yuklanishni oldini oladi. O'zbekistonda 27000 dan ortiq turdagi organizimlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati umurtqasiz hayvonlardir. 2022-yil malumotlariga ko'ra, mamlakatimiz „Qizil kitob“ ga 184 turdagi hayvonlar kiritilgan. Buxoro yo'lbarsi, Orol bo'risi, Osiyo gepardi kabi noyob hayvonlar yo'qolib ketish xavf ostida. Ushbu hayvonlarning yashash joylarining qisqarishi, noqonuniy ov qilish va iqlimni o'zgarishi natijasida kamayib bormoqda. Bu omillar qishloq xo'jaligi hayvonlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Irish moilid, Vaynxaymer kabi qoramol zotlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu qoramol zotlari yo'qolib borishiga asosiy sabablardan Irish Moilid bu zot Irlandiya hududida tarqalgan bo'lib , asosan go'sht yo'nalishidagi Holishteyn, Angus va boshqa zotlardan mahsuldorligi past bo'lganligi sababli asosan bu zotdagi qoramollar an'anaviy oilaviy fermer xo'jaliklari kamayib o'rnini yirik sanoat fermalari egalamoqda.





Dajal zotli qoramollar Pokistonning Panjob va Sind viloyatlarida tarqalgan bo'lib, u sut va go'sht uchun yetishtiriladi. Biroq zamonaviy Jersey kabi sutbop Angus kabi go'shtbop zotlar mahsuldorligi yuqori bo'lganligi sababli bu zotga ehtiyoj kamayib bormoqda shu sababli Dajal zoti yo'qolish xavf ostida qolmoqda. Dajal zotli qoramollarning buqalarining og'irligi 500-600 kg, sigirlariniki 350-450 kg bo'ladi. Sut berishining kunlik sig'imi 8-15 l ayrim hollarda 20 l gacha berishi mumkin. Yillik sut berish miqdori 2000-3000 l gacha sut berishi mumkin. Boshqa zotlarga nisbatan mahsuldorligi kam bo'lganli sababli bu zotga ehtiyoj kamayib bormoqda. Bu esa Dajal zotiga bo'lgan talabni yo'qolib borishiga olib kelidi. Ammo bu holatlarni oldini olish maqsadida ko'pgina chora tadbirlar olib borilmoqda. Yo'qolib borayotgan chorva hayvonlarni yo'qolib borishini oldini olish maqsadida, mahaliy zotlarni saqlab qolish bo'yicha davlat va xalqoro dasturlar ishlab chiqilmoqda va ularni ilmiy tatqiqot markazlarida bu zotlarni genetik jihatdan takomilashtirish ustida ish olib bormoqda.

## XULOSA

Hayvonlarning biologik xilma-xilligi – tabiatning eng boy va bebaho boyliklaridan biridir. Har bir turning o'ziga xos roli mavjud bo'lib, ular ekologik muvozanatni saqlash uchun juda muhim. Hozirgi kunda hayvon turlari inson faoliyati, iqlim o'zgarishi va tabiiy resuslarni yo'qolishi tufayli xavf ostida qolmoqda. Bu esa faqat tabiiy tizimga zarar yetkazib qolmay insoniyat uchun ham juda ko'p salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Shu sababdan bu muomolarni global hisoblab ko'pgina qonun va muhofaza qilish choralari ishlab chiqilmoqda. Hayvonlarning yashash joylarini saqlab qolish va ularni himoya qilish bilan biz nafaqat ularning hayotini, balki o'zimizning ekologik faravonligimizni ham taminlaydi.

## FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Wilson, E. O.** (1992). *The Diversity of Life*. Harvard University Press.  
→ Hayvonot dunyosining xilma-xilligini ilmiy asosda tushuntiradi.
2. **IUCN Red List of Threatened Species.** (2024). <https://www.iucnredlist.org>  
→ Xavf ostida qolgan turlar haqida eng so'nggi global ma'lumotlar.
3. **Primack, R. B.** (2014). *Essentials of Conservation Biology* (6th ed.). Sinauer Associates.  
→ Biologik xilma-xillikni saqlash usullari va xavf omillari haqida keng ma'lumot.
4. **Macdonald, D., & Norris, K.** (2001). "The extinction crisis: past and present." *Nature*, 411(6835), 543–545.  
→ Hayvonlar turlarining yo'qolish sabablari va tarixiy konteksti.
5. **Ubaydullayev, A.** (2020). *O'zbekistonda biologik xilma-xillik va uning muhofazasi*. Toshkent: O'zbekiston FA nashriyoti.  
→ O'zbekiston kontekstida hayvonot dunyosining xilma-xilligi va muhofazasi.

6. **UNEP (United Nations Environment Programme).** (2023). *Global Biodiversity Outlook 5*.  
→ Xalqaro miqyosdagi biologik xilma-xillik holati va siyosiy choralar.
7. **O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.** (2022). *Qizil kitob (3-nashr)*.  
→ Xavf ostida qolgan hayvonlar ro'yxati va ularni muhofaza qilish bo'yicha milliy hujjat.

1.

